

*Mirzaliyeva Zarinabonu Jahongir qizi**Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti 2-bosqich talabasi***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Turkiston jadid ma'rifatparvai Mahmudxo'ja behbudiyning matbuot soghasidgi qarashlari, olib borgan faoliyati, nashr ettirgan gazeta va jurnallari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Xurshid, Qrim, partiya, Shuhrat,yuksalish, gazeta, Behbudiya kutubxonasi, Nashriyoti Behbudiya.

Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvoldidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq kerak ed. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerakki, unda o'z qabohatini ham, malohatini ko'ra olsin. Mahmudxo'ja Behbudiyl butun faoliyatini millatni ilm-ma'rifatli qilishga qaratdi. Yana Hoji Muin so'zlari bilan aytadigan bo'lsak, "Behbudiyl afandi... qo'lig qalam olib, ...Turkistonning yangilik va yuksalishig" a hormay-tolmay, talashib-tortishib xizmat qilg'on birdan-bir muharrir va yo'lbosechchi" edi. Shu yo'nalishda adib matbuot sohasida ham ish yuritgan. M. Behbudiyl matbuot ishlari bilan 1913 yildan shug'ullandi. Ushbu yo'nalishning eng muhim bir qismini jurnalistik, gazetachilik tashkil qildi. U bir qancha vaqtli matbuot nashrlarini chiqarish bilan birga, "Xurshid", "Tujor", "Haqiqat"(keyinchalik "Shuhrat") kabi mahalliy gazeta va jurnallarda ishtirokidan tashqari Kavkaz< Qrim, Volbo'yi muslimmonlarning vaqtli nashrlarda ham faol qatnashib turgan. "Behbudiyl afandi, yozadi Hoji Muin, Kavkaz, Totariston va Turkistonda chiqqan matbuotda doim adabiy, ilmiy, ijtimoiy va siyosiy maqolalar yozib turar edi." Behbudiyl jami 18 ta vaqtli matbuot nashrda faol qatnashgan va jami ,maqolalairing soni 200 ga yaqin bo'lgan. Hoji Muin ko'rsatgan nashrlar orasida Turkistondan nashr qilingan "Tarjimon, Vaqt, Sho'ro, Tirik so'z, Ulfat, Irshod, Toza hayot" kabi o'z davrining mashhur gazeta va jurnallarini ko'rishimiz mumkin.

Behbudiyl shu yillari nashr ishlari bilan qizg'in shug'ullandi. «Nashriyoti Behbudiya» nomi bilan o'z xususiy nashriyotini ochdi. Fitratning «Bayonoti sayyohi hindi» asarini 1913-yilda ruschaga taijima qildirib, nashr etdi²⁸⁷. Turkiston xaritasini tuzib bosm adan chiqardi. Kutubxonani yo'lga qo'ydi. O'sha davr vaqtli m atbuotida «Behbudiyl kutubxonasi» haqidagi xabarlarga tez-tez duch kelasiz. 1907-yilning 1-dekabridan Avloniyning «Shuhrat» gazetasi chiqa boshladı. Gazeta tahriri yati Sapyornaya-35 da joylashgan edi.

Gazetaning yo'nalishini m uharrir shun day belgilaydi:

Jahonda ittifoqu ilm uchun ovoradur «Shuhrat»,
 Zuhuri ro'shnoyi ilm uchun m ahforadur «Shuhrat»,
 Vujudin sarf qilg'on ilm uchun bechoradur «Shuhrat»,
 Dili millat g'am ida dam -badam sadporadur «Shuhrat».
 Kalomi xushtakallum to'tiyi zebosifat so'zlar,
 M aqom i hurriyatda bulbuli shaydosifat so'zlar,
 Zam ona gulshanida qumriyi tanhosifat so'zlar,
 Gulistonlarda doim sayr e-tar tayyoradur «Shuhrat».
 Xabar bergay zam ona go'shiga atrof-har yondin,
 Yozar har safhasina ziynat ila har xil e 'londin,
 Dili xush, ramzi xushalfoz, xushuafkoradur «Shuhrat».
 Q o'yub sarlovhasina ilm, istar m uddaosini,
 Yana debochasida sharh etar, millat bahosini,
 Qani xush fa hm bilsa, gavhari qimmatbahosini,
 Zam oni m a'danida bir zum urradporadur «Shuhrat».
 Xaloyiq go'shidin xomushi g'aflat finsasin tortur,
 G 'arib millat ko'zidin safhasi-la yoshini artur.
 Xulusi niyat ila zori millat so'zini aytur.
 Farog'at, xobi g'aflatdin kecha bedoradur «Shuhrat».
 Xarobatxonada yotsang. bizim -chun kim qilur ta 'mir,
 Buzulsun. qadri ketsun. deb qilur hamsoyamiz tadbir,
 A1 ila turtmasang qilmas, qalarn o'zdan-o'zi tahrir,
 Qilub izhori hasrat har kima yolboradur «Shuhrat»¹

Behbudiy maqolalarining aksariyati Turkiston maktab-madrasalarining islohi, bu borada qilinayotgan sa'y-harakatlar haqida edi. “Behbudiy maqolalarining ko'bisi muhim mavzularda yozilg'on bo'liub, hanuz eskirgan emas va bu kunlarda ham biz uchun dasturaamal bo'laturg'on foydalik so'zlardur”, deb yozadiu o'z vaqtida Hoji Muin. Masalan, “Tarjimon”dagi “Turkistonda maktab lisoni” (1910-yil, 14-,21-sonlar)maqolasi “... maktab lisoni tahsilasi boibinda bahs...” bo'lib, bunda Behbudiy Turkistondagi maktablarda tehsil bir tilli emas, bir necha tilli bo'lishini yoqlab chiqqan edi. Behbudiy Turkistondan tashqaridagi vaqtli nashrlardagi faoliyatini kuzatar ekanmiz, unda vaqt jihatdan ma'lum bir chegaralanishni kuzatamiz, ya'ni 19019-1913-yillar orasida o'sha nashrlarda faolroq ishtirok etgan va o'z maqolalariga “Muftiyi dorulqazo muftilardan: Mahmudxo'ja Behbudiy” kabi imzolar qo'ygan. Shunisi achinarlik, Turkiston jadidlarning yetakchisi bo'lgan Behbudiyning o'lkadan tashqaridagi vaqtli matbuotda e'lon qilingan maqolalari haligacha to'planib, tadqiq etilmagan. Bu

¹ «Shuhrat» g., 1908-yil. 7-yanvar. 5-son.

Behbudi ijodini o'rganishda hozirgi tadqiqoqtchilar oldida turgan dolzARB vazifalardan biri hisoblanadi.

Umuman, Behbudiyning publitsist sifatidagi faoliyati adib iste'dodining juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o'z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O'zining Millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko'proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi. Ba'zilar uning maqolalari adadini 200, boshqalar 500 deb belgilaydilar. Uning barcha yozganlari hisoblab chiqilmagan, hatto aniqlanmaganlari qancha. Mualliflar o'zlarining ismi-shariflarini o'z gazeta-jurnallarida ko'pda qo'yavermaganlar. Har qanday holda ham Behbudi g'oyat sermahsul qalamkash edi. Muhimi shundaki, u XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi edi. Uning Millat va Vatan taqdiri haqidagi barcha qarashlari, avvalo, mana shu maqolalarida aks etgan edi. Bu jihatdan uning 1906-yil 10-oktabrda «Xurshid» gazetasida (6-son) bosilgan «Xayrul umuriavsatuho» (Ishlarning yaxshisi o'rtachasidur) maqolasi xarakterli. Bu maqola uzoq yillar Sovet tarix fani nuqtai nazaridan baholanib, Behbudiyni qoralash uchun nishon bo'lib keldi. Gap shundaki, Behbudiy o'sha 1906-yildayoq sotsialistik ta'lim otni va uni Rusiyada amalga oshirishga bel bog'lagan Lenin partiyasini keskin rad etgan Rusiya musulmonlari ittifoqi² «Ittifoqi muslimin»ni, qarashlarida m a'lum yaqinlik bo'lgan Kadetlar partiyasini qo'llaydi³. Uning bu xususdagi flkrlari ustoz Ismoilbek Gasprinskiyning «Mazhabi ishtirokiyun»ni qattiq tanqid qilgan «Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozana» risolasi va «Dorul rohat musulmonlari» romanidagi mulohazalarga tayanar edi. Behbudiy ham o'z ustoz kabi sotsializmni zo'ravonlik hisobladi, ijtimoiy tenglikniadolatsizlik deb bildi. Shaxs manfaatdorligida, millat ravnaqida taraqqiyotning buyuk omilini ko'rdi. Xuddi shu e'tiqod uni Turkistonning mustaqilligi uchun kurashga yetakladi.

Xulosa qilib aytganda, jadid gazetalari nashri, teatrler ochilgani, darsliklar yaratilgani, Turkistondagi aql-zakovatli kuchlarning uning g'oyasi atrofida uyusha boshlashi, madaniyat va adabiyotda yangi tamoyillar, ilg'or yo'nalish va oqimning paydo bo'lgani Mahmudxo'ja Behbudiyni yanada shijoat bilan faoliyat yuritishga da'vat etdi.

Foydaligan adabiyotlar

1. «Shuhrat» g., 1908-yil. 7-yanvar. 5-son.
2. «Rusiya musulm onlari ittifoqi» Rusiya musulmonlarining 1906-yil. 13—23-yanvarda Peterburgdag'i 2-se'zdida tuzilgan.

² «Rusiya m usulm onlari ittifoqi» Rusiya m usulm onlarining 1906-yil. 13—23- yanvarda Peterburgdag'i 2-se'zdida tuzilgan.

³ Rusiya m usulm onlaring 1905-y. N ijniy N ovgorodda bo'lgan 1-s'ezdi K adetlar partiyasiga qoshilish taklifi bilan chiqqan, 2-s'ezdda esa bu qaror bilan tasdiqlangan (yuqoridagi asar, 544-bet). 1917-yilda Behbudiy, M unaw arqori ko'plab Buxoro jadidlari qatoridan K adetlar qarashidan ham qaytganlar (Zaki Validi Tugan. Vospom inaniya, U fa, 1994, 186-bet).

3. Rusiya musulm onlaring 1905-y. Nijniy N ovgorodda bo'lgan 1-s'ezdi Kadetlar partiyasiga qoshilish taklifi bilan chiqqan, 2-syezdda esa bu qaror bilan tasdiqlangan (yuqoridagi asar, 544-bet). 1917-yilda Behbudiy, Munavvarqori ko'plab Buxoro jadidlari qatoridan Kadetlar qarashidan ham qaytganlar (Zaki Validi Tugan. Vospom inaniya, Ufa, 1994, 186-bet).